



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 26-dekabr

268-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 21¹-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Farg‘ona tumani hududidan tanlangan yer uchastkalari zaxira yerlari fondida ekanligi inobatga olinsin hamda ilovada qayd etilgan bo‘sh yer uchastkalari Farg‘ona tuman hokimligi nomiga mulk huquqi asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona tumani bo‘limi (N.Otajonov) ushbu qarorga muvofiq, Farg‘ona tuman hokimligining yer uchastkalariga bo‘lgan huquqini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

3. Farg‘ona tuman Soliq inspeksiyasi (I.Sharopov)ga ushbu yer uchastkasini ma’muriy-hududiy joylashuvidan va balans hududidan kelib

chiqqan holda yer uchastkasiga belgilangan huquqning minimal qiymatini belgilash vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Fargʻona tuman hokimining oʻrinbosari M.Qodirxonov zimmasiga yuklansin.

Fargʻona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 26-dekabrdagi
268-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona tumani hududida joylashgan bo‘sh yer uchastkalari

T/r	Manzili	Yer uchastkasini "YERELEEKTRON" tizimidagi raqami	Maydoni (gektari)
1	Farg‘ona tumani Damko‘l MFY hududida	KA1730233020/1	0.0301